

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**FARG'ONA VILOYAT PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRIHS
INSTITUTI**

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI KAFEDRASI

Quva tumani XTMΦMTTБga qarashli

2-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabining

ona tili va adabiyot o`qituvchisi

Qodiraliyeva Oygulning bir soatlik

DARS
ISHLANMASI

Farg`ona - 2012 yil

Mavzu: Sintaksis va punktuatsiya.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy:

Sintaksis va punktuatsiya bo'limlari haqida ma'lumot beriladi.

Tarbiyaviy:

O'quvchilarga ma'naviy, axloqiy tarbiya beriladi.

Rivojlantiruvchi:

Mustaqil ishlash va mantiqiy fikrlash malakalari shakllantiriladi

Dars turi: yangi tushuncha va bilimlarni shakllantirish.

Darsda foydalanilgan metodlar: Og'zaki bayon, suhbat, "Venn diagrammasi", "Tushunchalar tahlili" metodi.

Darsda foydalanilgan jihozlar: Ona tili" darsligi, kadoskop, mavzuga oid tarqatma materiallar.

Darsning rejasi:

1. Sintaksis haqida ma'lumot.
2. Gapda tinish belgilarining ahamiyati.
3. Tinish belgilarni o'zgartirish orqali yangi gaplar hosil qilish.

Darsning borishi.

I. Tashkiliy qism:

- a) salomlashish;
- b) davomatni aniqlash;
- c) Uy vazifasini tekshirish
- d) Yil fasllari bo'yicha guruhlariga ajralish

Bahor, yoz, kuz, qish.

II. O'tilgan mavzu yuzasidan takrorlash.

"Tushunchalar tahlili" metodi asosida

"Bahor" guruhi tushuncha yozadi, "Kuz" guruhi esa tushunchaning mazmunini yoritadi.

"Yoz" guruhining tushunchasini "Qish" guruhi izohlaydi.

Namuna:

Tushuncha	Mazmun
Zid ma'noli so'zlar	Qarama-qarshi ma'noli so'zlar zid ma'noli so'zlar deyiladi. Masalan: oq-qora

So'ng "Kuz" va "Qish" guruhlaridan 1 ta a'zosi chiqib taqdimot qiladi.

"Bahor" va "Yoz" guruhining a'zolari ularning javoblarini baholaydilar.

III. Yangi mavzu bayoni:

1-topshiriq.

Quyidagi so'zlarni bir-biriga bog'lab gap tuzing. O'zbekiston, buyuk, kelajak, davlat.


O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat.

2-topshiriq.

Yaxshi, kitob, o'qi. Yaxshi kitob o'qi.

Yuqoridagi jumlar bir-biridan nimasi bilan farq qilayotganini ayting

! Ma'lum bir fikrni ifodalash uchun so'zlarni tilimizning muayyan qoidalari asosida bir-biriga bog'lab, gap tuzamiz. So'zlarning bir-biriga bog'lanishi gap va uning turlarini o'rgatadigan tilshunoslik bo'limi Sintaksis, tinish belgilari va ularni yozma nutqda to'g'ri qo'llash yo'l-yo'riqlarini o'rgatuvchi tilshunoslik bo'limiga punktuatsiya deyiladi.



Talaffuzda: gap– ohang – ma’no

Yozuvda: gap – tinish belgisi– ma’no

IV. Mavzuni mustahkamlash.

56-mashq. Tinish belgisi bilan bog’liq holda gaplar ma’nosidagi farqni tushuntiring.

Bu gapiyng yomon, bo’lmadi. Bu gapiyng yomon bo’lmadi.

58-mashq. Berilgan gaplarning ma’nosini tinish belgisini qo’yish bilan o’zgartiring.

1. Sobir akam keldi. Sobir, akam keldi.

59-mashq. Gaplar tuzing, vergulni o’zgartirish orqali yangi gaplar hosil qiling.

Namuna:


Tashqariga chiqish mumkin emas, sovuq.

Tashqariga chiqish mumkin, emas sovuq.

Quyidagi savol va topshiriqlar bo’yicha kichik guruhlar a’zolari hamkorlikda ishlaydilar va bir guruh a’zosi taqdimot o’tkazadi. “Bahor”, “Yoz” guruhlaridan bir a’zosi taqdimot o’tkazadi. “Kuz” va “Qish” guruhleri ularning javobini baholaydi.

1. Sintaksis nimani o’rganadi?

2. Puntuatsiya tilshunoslikning qanday bo’limi?



3. Sport, tinchlik, elchi so'zlarini bog'lab gap tuzing. Qanday tinish belgilaridan foydalanganingiz sababini ayting.

V. Baholash.

O'quvchilar 5 ballik reyting tizim asosida ballanadi.

VI. Uyga vazifa 60-mashq.

“Saxiy kuz keldi” mavzusida kichik hikoya tuzing. Unda ishlatilgan tinish belgilarini izohlang.